

TRAVMALARSIZ FARZAND TARBIYALASH

Ismoil Mamadjanov

Kalit soʻzlar: *oila, tarbiya, travma, bolalik, jamiyat, sogʻlom muhit, qadriyat, farzand.*

Oilada farzand bamisoli nihol singari ulgʻayib, unib oʻsib voyaga yetadi. Bolalik davri normal oʻtishi, psixologik bosimlarsiz sogʻlom muhit aks etishi, kelajakda normal faoliyat olib borishi uchun bolalik travmalarsiz oʻtishi lozim.

Farzand bolalikdan tazyiq va zoʻravonlikka uchragan holda travmalar bilan ulgʻayadigan boʻlsa bu holat uning kelajagiga ham salbiy taʼsir koʻrsatadi va shu travmalar bilan umrini oxirgi daqiqasigacha ham oʻzini namoyon qila olmay yashashi mumkin.

Oila qanday boʻlsa, farzandlar ham jamiyat ham shunday boʻladi. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida maʼnaviyat sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar, avvalo, oila qadriyatlarini eng ilgʻor anʼanalarini tiklashga qaratilganligini bir qator jabhalarda namoyon boʻlib bormoqda. Agar oiladagi muhit sogʻlom boʻlsa, unda kamol topayotgan yosh avlod qalbi va ruhiga ezgu xususiyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy istiqlol gʻoyasini singdirish uchun qulay sharoit yaratilgan boʻladi, oʻzligini anglashda, jamiyatda oʻz oʻrniga ega boʻlishda yuqori ahamiyatga ega boʻladi. Oilaviy tarbiya oilada ota-onalar, vasiylar yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash, yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim oʻrin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy taʼsirchan kuch-oilaviy tartibdir.

Oila va mahalla boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga taʼsir koʻrsatadi. Oila va mahalla hamkorligidagi tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik taʼsir koʻrsatishning chuqur oʻziga xosligi bilan uygʻunlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada taʼsirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur boʻgʻiniga ham aylantiradi. Oila va mahallaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati bolalar va ota-onalarning oʻziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, qoʻni-qoʻshniligi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch xissi, obroʻligi va hokazolar bilan taʼminlanadi. Maʼlumki, xilma-xil faoliyat sharoitida bolaning qobiliyatlari eng samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari oila va mahallada roʻyobga chiqadi³².

A.S.Makarenko besh yoshgacha boʻlgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida oʻta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib oʻtgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “..tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan boʻlsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa

³² [FARZAND KAMOLOTIDA OILA TARBIYASINING O'RNI \(zenodo.org\)](https://zenodo.org/record/1234567/files/FARZAND_KAMOLOTIDA_OILA_TARBIYASINING_O'RNI.pdf)

qayta tarbiyalash negizida davom etadi”. Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o‘ta e’tiborli bo‘lish lozim³³.

L. S. Vigotskiy, A.N. Leontev, A.R. Luriya, D.B. Elkonin tadqiqotlariga ko‘ra, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri bu — muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V. Zaporozets va M.Lisina izlanishlarida ta’kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlarda rivojlanib boradi: 1) e’tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo’ladi; 2) kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji tug’iladi; 3) avvalgi barcha ehtiyojlarning kattalar tomonidan hurmat qilinishiga ehtiyoj tug’iladi; 4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o’zaro birbirini tushunish ehtiyoji vujudga keladi³⁴.

Shuningdek, bir qator omillarni yuzaga chiqaruvchi vaziyatlar yuzaga keladigan holatlarga asosan oilaviy muhit barqaror bo‘lishi ota-onaning psixologik sog‘lom bo‘lishiga bog‘liqligi inkor qilib bo‘lmas haqiqatdir.

³³ Boynazar S. L., Ulugbek M. Ursachen Der Entstehung Von Psychischen Krisen // " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2021. – C. 514-516. Boynazar S. L., Ulugbek M. Ursachen Der Entstehung Von Psychischen Krisen // " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2021. – C. 514-516.

³⁴ M.Maxsudova. "Muloqot psixologiyasi" Toshkent. "Turon-Iqbol" - 2006.(10-11 betlar)